




ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


ANDIJON VILOYATINING
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI
2023-YIL YANVAR-NOYABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 74 228-30-42
www.andstat.uz

Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 63 457,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,1 % ni tashkil etdi.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumanida 106 558,6 ming so'm, Xonobod shahrida 5 616,0 ming so'm hamda Xo'jaobod tumanida 20 622,4 ming so'm, Andijon shahrida 18 762,8 ming so'm, Andijon shahrida 18 762,8 ming so'mni tashkil etmoqda.

Yanvar-noyabr
ming so'm



Yanvar-noyabr
o'sish sur'ati % da



yillar 2021 2022 2023

Andijon sh.	18 762,8	100,8
Xonobod sh.	54 705,1	99,6
Oltinko'l	5 616,0	104,6
Andijon	4 170,4	105,0
Baliqchi	7 107,9	102,6
Bo'ston	5 780,0	102,6
Buloqboshi	2 621,1	103,1
Jalaquduq	7 484,8	104,5
Izboskan	3 800,3	100,6
Ulug'nor	7 535,7	106,3
Qo'rg'ontepa	9 182,4	103,1
Asaka	106 558,6	104,8
Marhamat	3 700,3	103,3
Shahrixon	3 719,2	99,9
Paxtaobod	4 267,3	101,6
Xo'jaobod	20 622,4	100,7

ming so'm

o'sish sur'ati % da

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **62 336,6** mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **98,2 %** ni tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'm




2023-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (58,8 %), Andijon shahri (14,0 %), Xonobod shahri (3,9 %), Xo'jaobod tumani (3,8 %) hamda Qo'rg'ontepa tumani (3,3 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Asaka tumanida (107,2 %), Paxtaobod tumanida (103,8 %) hamda Xo'jaobod tumanlarida (103,3 %) kuzatildi.

FHI, % da



Ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **632,6** mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,0 %** ini tashkil etdi.



Yanvar-noyabr

2022-y. 226,3 mlrd. soʻm

2023-y. 632,6 mlrd. soʻm

FHI, % da

2022-y. 83,9 %

2023-y. 124,9 %

C seksiya

Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **62 336,6** mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **98,2 %** ini tashkil etdi.

Yanvar-noyabr

2022-y. 44 618,4 mlrd. soʻm

2023-y. 62 336,6 mlrd. soʻm

FHI, % da

2022-y. 121,0%

2023-y. 108,4 %



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab
chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

	Yengil avtomobillar		Yumshoq bug'doy va spelta uni		Aroq
2023	119,8	2023	29,4	2023	0
2022	153,1	2022	90,0	2022	111,5
2021	63,3	2021	89,1	2021	79,6
	Paxtadan yigirilgan ip		Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar		Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim
2023	99,0	2023	170,2	2023	39,1
2022	55,2	2022	129,2	2022	11,9
2021	148,9	2021	89,8	2021	4,1
	Neft		80 % dan kam bo'lmagan etil spirti		Uzum vinosi
2023	102,2	2023	82,1	2023	0
2022	102,8	2022	104,2	2022	27,9
2021	162,2	2021	91,4	2021	75,5
	O'simlik yog'i (tozalanmagan)		Paxta chigiti		Paxta tolasi
2023	0	2023	46,4	2023	109,9
2022	35,6	2022	35,2	2022	164,5
2021	146,5	2021	63,6	2021	62,3

2023-yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 251 361 ming dona yengil avtomobil (2022-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 19,8 % ga oshgan), 33 715,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni 70,3 % ga kamaygan, paxtadan yigirilgan ip mahsulotlari 1,0 % ga kamaygan.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2022-yil yanvar-noyabr	Farqi, +/-
Yengil avtomobillar (ixtsoslashtirilmagan) - dona	251 361,0	209798,0	41 568,0
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	37355,1	37743,7	-388,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni - tonna	33715,4	113596,3	-7988,9
Temir yoki po‘lat simdan matolar, panjaralar, to‘rlar va to‘siqlar - tonna	293,2	172,3	120,9

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi 67,2 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 144,7 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi 10,1 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,2 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi 10,1 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % (2022-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 90,2 %)ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2022-yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 71,5 % (2022-yilning yanvar- noyabr oylarida – 68,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 2,3 % (2022-yilning yanvar- noyabr oylarida – 3,0 %) va quyi texnologiyalisi – 26,1 % (2022-yilning yanvar- noyabr oylarida – 28,0 %)ni tashkil etdi.




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati 57,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 43,8 % ni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 21,1 % ni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 87,0 % ga va ishlab chiqarish hajmi 593,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 139,9 % ni tashkil etgan.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 3,6 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,8 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 2 291,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,1 % ni tashkil etgan.

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va asbob-uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 339,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida mashina va asbob uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,5 % ni tashkil etgan.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



2023-yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,1 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 7,8 % ga oshgan, ishlab chiqarish hajmi 6 420,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 110,8 % ni tashkil etgan.




Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 67,2 %, fizik hajm indeksi 11,5 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 42 674,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 64,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 144,7 % ni tashkil etgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 150,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 764,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,3 % ni tashkil etgan.


Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 130,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 584,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni fizik hajm indeksi esa 128,8 % ni tashkil etgan.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 123,5% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 422,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni fizik hajm indeksi esa 84,8 % ni tashkil etgan.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **D** seksiya

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2023-yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 351,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 389,2 mlrd. so'mga kamayganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2022-yil yanvar-noyabr	Farqi, +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	633,9	758,1	-124,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	0,4	6,7	-6,3

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

E seksiya

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 136,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2022-yil yanvar-noyabr	Farqi, +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	101,0	70,0	31,0
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	0,0	0,0	0,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 101,0 mlrd. so'm yoki 100,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda hajm bajarilmagan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish



Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 44 955,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 107,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 70,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Jami iste'mol mahsulotlaridagi ulushi, % da

2022-yil yanvar-noyabr



2023-yil yanvar-noyabr



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 25,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida 80,2 %, Xo'jaobod tumanida 4,5 % hamda Andijon shahrida 2,7 % ga to'g'ri keladi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 30 041,8 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 80,2 %, Xo'jaobod tumanida 2 040,7,4 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 4,5 %, shuningdek, Andijon shahrida 1 224,0 mlrd. so'mlik iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste'mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi.

Andijon sh.	1 224,0	91,4
Xonobod sh.	367,2	113,3
Andijon	617,6	101,2
Asaka	36 041,8	107,7
Baliqchi	268,7	102,0
Buloqbooshi	288,3	105,7
Bo'ston	161,2	98,5
Jalaquduq	780,8	114,3
Izboskan	546,4	99,0
Ulug'nor	251,0	110,6
Marhamat	246,3	99,7
Oltinko'l	768,9	120,5
Paxtaobod	520,8	92,6
Xo'jaobod	2 040,7	114,2
Shahrixon	319,6	102,2
Qo'rg'ontepa	511,8	115,4

mlrd. so'm

O'sish sur'ati, % da


34 316,0 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-noyabr

38 818,0 mlrd. so'm

2023-yil yanvar-noyabr

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi




2022-yil 144,7 %

2023-yil 107,6 %

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 13 421,8 ming so'm bo'lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo'yicha Asaka tumanida 102 888,3 ming so'mga, Xo'jaobod tumanida 17 264,7 ming so'mga, Xonobod shahrida 8 105,3 ming so'mga, Oltinko'l tumanida esa 4 042,4 ming so'mga to'g'ri keldi.



Andijon viloyati

10 465,8 ming so'm

2022-yil yanvar-noyabr

13 421,8 ming so'm

2023-yil yanvar-noyabr



2023-yil 105,3%

2022-yil 141,8 %


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida

jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13 063,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida viloyatdagi Buloqboshi, Izboskan tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi 100 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shahrixon tumani (82,9%), Andijon tumani (80,6%), Baliqchi tumani (66,6%), Ulugʻnor tumani (65,8%) tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Xonobod shahri (29,8%), Andijon shahri (28,5%), Asaka tumanidir (1,4%). Sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



2023-yil 1-dekabr holatiga

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda Andijon viloyatida 10 968 ta sanoat korxonalarini ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 5 614 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 500 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,7 %) Andijon shahriga, 631 tasi (11,2 %) Andijon tumaniga, 515 tasi (9,2 %) Asaka tumaniga, 411 tasi (7,6%) Xo'jaobod tumaniga, 427 tasi (7,3 %) Shahrixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2022-yil

980 dona

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2023-yil

799 dona



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

2022-yil

9 865 dona

2023-yil

5 614 dona

Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan